

PEDAGOGIKA FANINI RIVOJLANTRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Mamatova Nilufar Abdullajonova

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada pedagogika fanini rivojlantrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiya asosida mashg'ulot o'tish, dars jarayonida zamonaviy texnik vositalar, kompyuterlar, videokompyuterli multimediya komplekslarini qo'llash orqali o'tish kerakligi asoslangan. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar, anjumanlardagi mavzu va hisobotlarda ham o'z aksini topmoqda va bu fan bilan shug'ullanadigan olimlarning ilmiy ishlari ham yoritilgan. Qolaversa, pedagogika fanini rivojlantrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika fani, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim tamoyillari, metodik ishlanmalar.

KIRISH

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi. O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratish bilan bir qatorda, ta'lim tarbiyasi butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib boorish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining "Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari" bo'limida ikki bosqichli oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan tadbirlar qatorida "yangi pedagogik va axborot texnologiyadan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish; o'qitishni mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta'lim tizimi texnologiyasi

va vosilalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish" haqida so'z yuritilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish o'qitishni takomillashtirish, ya'ni o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq qilish, kompyuterli avtomatlashtirilgan o'qitish tizimini qo'llash, ta'limda yangi texnikaviy va didaktik vositalar hamda multimediya imkoniyatlaridan foydalanish, masofadan o'qitish ta'limini joriy qilish kabi o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali bajariladi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi pedagogik texnologiya asta-sekinlik bilan shakllanib, O'zbekiston Respublikasiga ham kirib kela boshlagan. Yangi pedagogik texnologiya dars jarayonida talabalarni mustaqil fikrlash, erkin faoliyat yuritishga da'vat etadi.

So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog olim va o'qituvchilari tomonidan o'quvjarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar, anjumanlardagi mavzu va hisobotlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, respublikamiz olimlari R.X.Jorayev, A.P.Parpiyev, N.X.Saydahmedov, U.N.Nishonaliyev, L.Farberman, L.V.Golish, U.X.Tolipovlar hamda Rossiya pedagog olimlaridan V.P. Bezpalko, M.V.Klarin, V.M.Monaxov, P.I.Pidkasistiyalar, shuningdek, qozog'istonlik olimlaridan M.J.Aristanov, J.S.Xaydarov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida "pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Hozirgi kunda pedagogika adabiyotlari, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar va rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi" kabi iboralar keng qo'llanmoqda. Ammo ushbu tushunchalar hali ham bir qolipga tushirilmagan va entsiklopidiyalarda izohlanganicha yo'q. Bu iboralar mazmunining yagona lalqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun ularning birbiridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

V. Guzevning ta'kidlashicha, an'anaviy uslubda ta'lim maqsadlari dastur talablariga muvofiq holda noaniq, ya'ni ta'lim oluvchilarning "o'zlashtirish" tushunchasi qobig'iga o'ralgan noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Ko'proq yutuqlarga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun mana shu o'qituvchilarning pedagogik faoliyati namuna sifatida ko'rsatiladi. Ammo bir qator olimlar ta'limning alohida uslubiyotlari davri o'tganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini ta'kidlamodalar. Hozirgi kunda ko'pgina mutavassislar an'anaviy pedagogikani tanqid qilgan holda o'qitishda haligacha umumiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan yondashuv ustivorligini ta'kidlamodalar. O'quvchilarning real dunyo ob'ektlari bilan ishlashi hajm va mazmun jihatidan juda kam.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning afzalliklari shundan iboratki, bunday darslar tizimi tafakkurni charxlaydigan, Vatanga cheksiz muhabbat, sadoqatni, fuqarolik axloqi va demokratik madaniyatni shakllantiruvchi fan asosi bo'lib xizmat qiladi. Fanlarni o'qitishda —Guruhlar bilan ishlashl,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

—Munozaral, —Muammoli o'qitishl, —Aqliy hujuml kabi metodlar, shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma ishlar, insholar yozish o'quvchilar faolligini oshiradi.

Bu metodlar asosida olib borilgan ana shunday darslar vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni o'quvchiga yetkazib beradi, shuning bilan birga bolani o'ylantiradigan, chuqur mushohadaga undaydigan, butun diqqat e'tiborini o'ziga jalb qila oladigan, muammoli vaziyatlar, bahs-tortishuvlarda to'g'ri xulosalar bilan vaziyatdan chiroyli chiqib keta oladigan va olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog'lab, umumlashtiradigan sharoitga ega bo'ladi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib, "tehnos" – mahorat, san'at "logos" – ta'limot, fan ma'nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so'zi boshqa terminlarga qo'shib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir. Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda —o'rgatishl jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar. Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. O'quvchi passiv ta'lim obyektidan faol shaxs ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o'qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Innovatsion usullarda dars o'tish jarayonini, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta'lim jarayonlarining o'tilishida ham qulayli yaratgan bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, boshlang'ich ta'limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi davrlarida tashkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o'taydi.

Talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan bin hissiy vaziyat, bilishga bo'lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishni yaratish bo'lishi ham mumkin. Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga faollik kiradi, ya'ni bu shunday ish faoliyatiki, unda bilish faoliyatini jonlantiradigan intellektual, irodaviy, hissiy jarayonlar birgalikda namoyon bo'ladi. Jonli bilish faoliyati uchun, bilimga bo'lgan har tomonlama, chuqur qiziqish, muayyan kuch sarf qilinishi, diqqat, belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan aqliy va jismoniy kuchlar qaratilgan bo'lishi lozim. Bilish faolligi individual bo'ladi, u shaxsning tug'ma qobiliyati emas, balki uning xatti-harakatlari jarayonida shakllanadi.

Talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir:

- bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;
- aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;
- diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to'plash. Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:
 - reproduktiv faollik. Bunda — tayyor bilimlarni egallashga tayyorlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati kabi amal qiladi;
 - aplikativ faollik — unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;
 - izohlashdagi faollik — ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;
 - produktiv (samarali) faollik — unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil xatti-harakatlarga intilishda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyatdagi faollik;
- o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati va tamoyillarini qo'lga kiritishdagi intilish;
- ijodiy faollik oliy bosqich bolib, u sabab-oqibat bog'lanishidan, ijodiy fikrlarning haqqoniyligiga, uning hayotiy va bilish qimmatiga ishonch hosil qilishdan tarkib topadi.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilishga izn beradi: o'qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda tom ma'noda fikrlash ishining faolligi tushuniladi. Fikrlash faolligi bilish faoliyatida maqsadga muvofiq analiz va sintezda, o'quv materiallarini konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyani qo'llashda, bilimlar tizimini egallashda, dunyoqarash hamda tasavvurlar va tushunchalarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Talabalarning ijodiy faolligi rivojlanishi shaxsning o'iganilayotgan narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olishi qobiliyati bilan xarakterlanadi. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi. Chunki mustaqil harakatlarning o'zidayoq shaxsning faolligi namoyon bo'ladi, aksincha, faollik ko'pincha mustaqil harakatlarni taqozo qiladi.

Bilish mustaqilligi quyidagi belgilaiga ega:

- mustaqil fikrlay olish va unga intilish;
- yangi vaziyatlarda moljalni ola bilishsa yoki yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;
- o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;
- boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;

XULOSA

B.P. Yesipov mustaqil ishlarni bilimlarni izlab topish, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, bilimlardan yangi sharoitlarda foydalana olish hamda bilimlarni amaliy qo'llash kabi didaktik vazifalar bilan bog'laydi. Xulosa qilib aytganda o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;
- 2) ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan, demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- 3) kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning tashkiliy va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- 4) kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi talablar doirasida qayta qurish;
- 5) ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- 6) tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona metodikasini joriy qilish;
- 7) normativ va moddiy - texnika axborot bazasini yaratish;
- 8) ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash;
- 9) tizimga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb qilish;
- 10) kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

REFERENCES:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, —Pedagogik texnologiya asoslaril, T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, —Ta'lim yangilanish yo'lidal, T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., —Osnov pedagogicheskoy texnologil, M., 1999.
4. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA OILA MUHITINING O'RNI. Архив Научных Публикаций JSPI. 10.Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>

